

DMTTDA XULQI OG‘ISHGAN TARBIYALANUVCHILARDA BO‘LADIGAN O‘ZGARISHLAR VA ULARNI OLDINI OLISH

Raxmonova Dilxumor Fayzullayevna

Jizzax viloyati Do‘stlik tumani

10-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (DMTT) xulqi og‘ishgan bolalarning psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishidagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bunday holatlarning oldini olishda tarbiyachi va psixologlarning roli, samarali metodlar hamda ota-onalar bilan hamkorlik yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xulq, og‘ishgan bola, psixologik yordam, tarbiyachi, profilaktika, muloqot, oilaviy tarbiya.

Kirish

Har bir bola — jamiyatning kelajagi, oila va ta’lim tizimining eng nozik bo‘g‘inidir. Maktabgacha yosh davrida bolaning xulq-atvori, fe‘l-xuyati va odo normalari shakllanadi. Ammo ayrim hollarda bolalarda turli sabablar ta’sirida xulqning og‘ishi, ya’ni salbiy harakatlar, tajovuzkorlik, itoatsizlik yoki inijlik holatlari kuzatiladi. Bu jarayon tarbiyachilar va ota-onalar uchun jiddiy e’tibor talab qiladi, chunki xulqdagi og‘ishlar vaqtida aniqlanmasa, keyingi ta’lim bosqichida yanada kuchayishi mumkin.

Asosiy qism

Xulqi og‘ishgan tarbiyalanuvchilar odatda hissiy beqarorlik, e’tibor yetishmasligi, muloqotdagi muammolar yoki oiladagi tarbiyaviy muvozanatsizlik oqibatida shakllanadi. Ular o‘z tengdoshlari bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnata olmaslik, tajovuzkorlik, yolg‘on so‘zlash yoki inijlik kabi xatti-harakatlarni namoyon etishadi.

DMTTda bunday bolalarda kuzatiladigan o‘zgarishlar quyidagicha bo‘ladi:

Psixologik o'zgarishlar: asabiylik, qo'rquv, o'ziga ishonchsizlik, e'tiborga chanqoqlik;

Emotsional o'zgarishlar: tez jahllanish, yig'loqilik, diqqatni jamlay olmaslik;

Ijtimoiy o'zgarishlar: jamoada o'zini tutolmaslik, tarbiyachilarga qarshi chiqish yoki yolg'izlanish.

Bunday holatlarning oldini olishda tarbiyachi, psixolog va ota-onalarning hamkorligi muhim o'rin tutadi. Tarbiyachilar bolaning holatini diqqat bilan kuzatib, har bir tarbiyalanuvchining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

Oldini olish choralari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Individual yondashuv — har bir bolaning ehtiyoji, his-tuyg'usi va xarakterini chuqur o'rganish.

2. Ijobiy muhit yaratish — mehribonlik, e'tibor va rag'bat orqali bola xatti-harakatini to'g'ri yo'naltirish.

3. Psixologik mashg'ulotlar — hissiy barqarorlikni mustahkamlovchi o'yinlar, relaksatsiya mashqlari.

4. Ota-onalar bilan muntazam muloqot — oilaviy muhitdagi muammolarni birgalikda hal etish.

5. Rag'bat tizimi — yaxshi xatti-harakatlarni maqtash, ijobiy fikr orqali bola o'zini qadrlashni o'rganadi. Metodik yondashuv va o'yinlardan foydalanish misollari

Xulqi og'ishgan tarbiyalanuvchilar bilan ishlashda to'g'ri metodika va pedagogik o'yinlar katta ahamiyatga ega. O'yin faoliyati orqali bola o'z hissiyotini ifoda etadi, xatti-harakatlarini boshqarishni o'rganadi va ijtimoiy muhitga moslashadi. Quyida bunday bolalar bilan ishlashda samarali bo'lgan ba'zi metod va o'yinlar keltiriladi:

● 1. “Men qanday his qilyapman?” (Psixologik o'yin)

Maqsad: Bolalarda o'z his-tuyg'ularini anglash va ifoda etish ko'nikmasini shakllantirish.

Metodika: Tarbiyachi turli holatlar tasvirlangan kartochkalarni (masalan: quvonch, g'azab, hayrat, qo'rquv) ko'rsatadi. Bola bu holatda nimalarni his qilganini aytadi va mimika yoki harakat bilan ko'rsatadi.

Natija: Bola o'z hissiyotini tanib, uni nazorat qilishni o'rganadi.

● 2. “Yaxshi so‘z — yaxshi natija” (Axloqiy o‘yin)

Maqsad: Yaxshi so‘z va xatti-harakatlarning ijobiy ta’sirini anglatish.

Metodika: Tarbiyachi bolalarni ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruh “yaxshi so‘zlar” (rahmat, iltimos, kechirasiz)ni aytadi, ikkinchi guruh esa “yomon so‘zlar”ni (baqirish, haqorat) takrorlaydi. So‘ng o‘yin yakunida qaysi so‘zlar yoqimli eshitilishi haqida muhokama o‘tkaziladi.

Natija: Bola muloqot madaniyatini o'rganadi, ijobiy so‘zlardan foydalanishga odatlanadi.

● 3. “Sehrli doira” (Art-terapiya elementi bilan)

Maqsad: Bolada tinchlanish, ichki muvozanatni tiklash, o‘zaro ishonchni mustahkamlash.

Metodika: Bolalar doira shaklida o‘tiradilar. Tarbiyachi sekin musiqa qo‘yadi va “Sehrli to‘p”ni bolalarga navbat bilan uzatadi. To‘pni olgan bola bugun uni quvontirgan yoki ranjitgan voqeani qisqacha aytadi.

Natija: Bolalar bir-birini tinglashni, his-tuyg‘ularini baham ko‘rishni o‘rganadilar.

● 4. “Men do‘stman” (Ijtimoiy moslashuv o‘yini)

Maqsad: Jamoaviy muhitda muloqot qilish va hamkorlikni rivojlantirish.

Metodika: Tarbiyachi o‘yinchoqlar yordamida kichik rolli o‘yin tashkil etadi, masalan: “bog‘dagi do‘stlar”, “qo‘g‘irchoq bayrami”. Har bir bola o‘z rolini bajaradi va boshqalarga yordam beradi.

Natija: Jamoada ishlash, yordam berish va do‘stlik qadriyatlarini o‘rganadi.

● 5. “Ranglar tilida hislar” (Rang terapiyasi)

Maqsad: Bolaning ichki hissiy holatini ranglar orqali ifodalash.

Metodika: Tarbiyachi bolalarga turli rangdagi qog'ozlar beradi va "bugun o'zingni qaysi rangdek his qilyapsan?" deb so'raydi. Bola tanlagan rang orqali kayfiyatini bildiradi.

Natija: Tarbiyachi bolaning emotsional holatini bilib oladi va unga mos psixologik yordam ko'rsatadi.

Shuningdek, tarbiyachi o'z amaliy faoliyatida zamonaviy psixologik yondashuvlardan — masalan, art-terapiya, rolli o'yinlar, dramatizatsiya va hissiy muvozanat mashg'ulotlaridan foydalanishi tavsiya etiladi. Bu usullar bolalarning ichki dunyosini tushunishga va salbiy his-tuyg'ularni to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Xulosa

Xulqi og'ishgan bolalar bilan ishlash sabr, bilim va muhabbat talab etadi. Eng muhimi, bunday bolalarga nisbatan qat'iy jazodan ko'ra, mehr, tushunish va individual yondashuv samaraliroq natija beradi. DMTTda sog'lom psixologik muhit yaratish, tarbiyachilarning malakasini oshirish va ota-onalar bilan doimiy hamkorlik orqali xulqdagi og'ishlarning oldini olish mumkin. Har bir bola to'g'ri yo'l ko'rsatilsa, mehr bilan yondashilsa, ijobiy tomonga o'zgaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3. G'oziyev E. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
4. Qodirova F.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2022.